

ISSN: 2545-0573

**QISHLOQ XO‘JALIGINING IXTISOSLASHUVI VA XUDUDIY TARKIBINI  
TAKOMILLASHTIRISHNING IQTISODIY GEOGRAFIK JIHLTLARI  
(XORAZM VILOYATI MISOLIDA)**

**Atayeva Nazira Polvannazarova**

*Urganch davlat universiteti Geodeziya, Kartografiya, Geografiya kafedrasida o‘qituvchisi*

**Xaytimmatov Sanjarbek Husanboy o‘g‘li**

*Jumaboyev Ruslon Raximberganovich Urganch davlat universiteti 2 kurs magistrantlari*

---

**ARTICLE INFO.**

**Keywords:**

ixtisoslashuv, mehnat resurslari,  
unumdor tuproq, deflyatsiya, deygish  
hodisasi, voha, eroziya

---

**Annotation**

Bugungi hayotimizni qishloq xo‘jaligi mahsulotlarisiz tassavur qilish qiyin hisoblanadi. Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligining rivojlanishi, ixtisoslashuvi va uning hududlar kesimida taqsimlanib takomillashishi haqida ma‘lumotlar berilgan. Shuningdek maqola mualliflarining izlanishlari natijasida qishloq xo‘jaligining ixtisoslashuvi uchun yangidan yangi hududlar haqida ham ma‘lumotlar berilgan.(Xorazm viloyati misolida).

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

---

**Kirish:** *Qishloq xo‘jaligi* - moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri. Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari olish uchun ekinlar ekish va chorva mollarini ko‘paytirish bilan shug‘ullanadi, aholini oziq-ovqat mahsulotlari va xalq xo‘jaligining bir qancha tarmoqlarini xom ashyo bilan ta‘minlaydi. Qishloq xo‘jaligi o‘simlik va hayvon mahsulotlarini dastlabki qayta ishlashning turli tarmoqlarini ham o‘z ichiga oladi. Moddiy ishlab chiqarishning boshqa jami sohalaridan farq qilgan holda Qishloq xo‘jaligi juda katta maydonlarda va hududiy xilma xil sharoitlarda olib boriladi. Unda yer (asosiy ishlab chiqarish vositasi), yorug‘lik, issiqlik, suv va tirik organizmlar — o‘simlik va hayvonlardan foydalaniladi[1].

Qishloq xo‘jaligining rivojlanishida muhim omil bo‘lib unumdor yerlar(qishloq xo‘jaligining dehqonchilik tarmog‘i uchun) va katta katta maydonlar qumliklar(qishloq xo‘jaligining chorvachilik tarmoqlari uchun) hisoblanadi. Ushbu maqolani o‘qish vaqtida siz aynan Xorazm viloyati misolida qishloq xo‘jaligining ixtisoslashuvi va xududiy tarkibini takomillashtirishning iqtisodiy geografik jihatlari haqidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lasiz.

## 1-jadval.

Xorazm viloyatida qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilga nisbatan foizda)

	Sbu jumladan:				Barcha toifadagi xo'jaliklar	Sbu jumladan:				Barcha toifadagi xo'jaliklar	Sbu jumladan:			
	Barcha toifadagi xo'jaliklar	Fermar xo'jaliklari	Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar		Fermar xo'jaliklari	Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	Barcha toifadagi xo'jaliklar		Fermar xo'jaliklari	Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
														Jami
2010	102,5	97,1	103,1	140,0	101,0	98,2	104,4	200,9	104,4	81,1	103,5	114,3		
2011	100,3	89,6	106,0	91,6	94,9	88,5	106,6	63,3	105,9	107,6	103,7	112,4		
2012	110,3	116,2	107,4	137,0	115,3	117,0	111,8	183,7	105,8	105,2	105,7	116,3		
2013	109,7	112,8	108,5	103,8	112,9	112,7	113,7	91,5	106,7	113,0	106,4	112,3		
2014	106,2	103,6	106,3	117,4	105,7	105,5	105,6	127,2	106,7	106,7	106,6	112,4		
2015	105,5	103,5	106,3	103,5	104,7	103,2	107,0	91,4	106,2	106,9	106,0	111,2		
2016	107,0	105,1	107,9	106,0	107,6	105,1	111,2	103,2	106,3	105,5	106,3	107,7		
2017	101,4	89,4	106,8	80,1	97,6	89,5	107,5	76,4	105,3	88,4	106,5	82,0		
2018	98,0	75,0	106,0	125,8	88,3	73,1	102,3	105,0	108,1	100,5	108,0	135,7		
2019	103,8	118,9	99,7	95,1	106,6	119,4	97,5	85,6	101,3	112,9	100,9	101,2		
2020	101,7	97,3	101,9	176,7	101,0	97,2	100,7	295,6	102,3	98,7	102,5	103,3		
2021 yil yanvar-dekabr	103,0	102,1	100,9	183,3	104,6	101,1	100,3	228,3	101,7	112,1	101,1	108,5		

<sup>11</sup> 2000-2009 yillar uchun ma'lumotlar XHTUT taariflagichi asosida keltirilgan. 2010-2020 yillar uchun ma'lumotlar aniqlik kiritilgan (qayta baholab chiqilgan) ma'lumotlarni hisobga olgan holda keltirilgan.

<sup>12</sup> Davlatli ma'lumotlar

**Asosiy qism:** Qishloq xo'jaligi qo'shimcha imkoniyatlarga boy soha. Bozorlarimiz fayzu barakasi, hayotimiz farovonligi ko'p jihatdan unga bog'liq. Zero, yurtimiz zamini saxovatli. Shu bois keyingi yillarda agrar sohani tubdan isloh qilish va uni bozor talablariga moslashtirish ishlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Masalan, davlat xarid narxlarining qariyb 3 barobar oshirilishi paxtachilik va g'allachilikni daromad keltiradigan tarmoqqa aylantirdi. Qolaversa, paxtachilikda mutlaqo yangicha ish tutumiga, ya'ni klaster tizimiga o'tilgani mehnatga munosabatni tubdan o'zgartirdi. Ishni samarali tashkil etish va boshqarish imkoniyati yuzaga keldi.

Shuningdek, paxta maydonlarida sug'orishning tejamkor usullari tatbiq etildi. Shu yilning o'zida 25 ming gektar paxta maydonida suv tejavchi yangi sug'orish tizimi joriy qilinishi natijasida o'tgan yildagiga nisbatan uch barobar ko'p hosil olish kutilayotgani, foydalanishdan chiqqan 1 million 100 ming gektar yer maydoni qayta foydalanishga kiritilayotgani shunday sa'y-harakatlar samarasidir. Qisqacha aytganda, qishloq xo'jaligida shu paytgacha amal qilib kelgan eskicha ish uslubidan butunlay voz kechish, shunchaki xom ashyo yetishtirish manbaiga aylanib qolgan sohani tubdan isloh etish. Chunki yangicha ishlash uslubiga o'tish payti, allaqachon, yetib keldi. Joriy yilning 6-sentyabr kuni Prezidentimiz huzurida o'tkazilgan yig'ilishda ishlab chiqilayotgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi muhokama qilindi. Unda qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishni takomillashtirish, suvdan foydalanish samaradorligini yuksaltirish, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish, qishloq xo'jaligining eksport salohiyatini oshirish va qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar hajmini ko'paytirish, qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatish sohasida raqobat muhitini shakllantirish, qishloq xo'jaligida axborot texnologiyalarini keng joriy qilish hamda tarmoq statistikasini to'liq raqamlashtirish orqali ma'lumotlar haqqoniyligini ta'minlash, kadrlar masalasini hal etish, ilm-fanni rivojlantirishga xizmat qiluvchi yettita ustuvor yo'nalish belgilab berildi. Yuqoridagi ma'lumotlardan asosiy ma'no shundaki shu vaqtgacha ya'ni yaqin kunlarga qishloq xo'jaligi asosan eski an'analar asosida shug'ullanilib ish olib borilgan bo'lsa (ba'zi hududlarda). Shunday bo'lsa-da viloyatning turli qismlarida zamonaviy

usullar bilan ham qishloq xo'jaligining turli sohalari bilan shug'ullanuvchi odamlar anchagina.

Xorazm viloyati jahonning mehnat sig'imi yuqori bo'lgan xomashyo va moddiy xomashyo ko'p talab qiladigan oziq-ovqat mahsulotlari, konstruksion materiallar (oyna, polipropilen idishlar) sopol buyumlar, to'qimachilik, tikuvchilik, trikotaj hamda boshqa yengil sanoat (asosan qishloq xo'jaligi negizida) mahsulotlari bozorida ham ishtirok etmoqda[3].

Qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi har bir rayon, tuman va boshqa birliklarda ushbu tarmoq bilan shug'ullanishda muammolarga duch kelinadi. Ayniqsa Xorazm viloyatining relyefi tekisliklardan iboratligi va atrofini to'rt tomondan cho'llar bilan o'ralganligi sabab turli xil muammolar bo'lib turadi. Shunday muammolardan biri bu Orol dengizi hisoblanadi. Orol dengizining qurigan tubidan har xil zararli moddalar shamol ta'sirida butun orol bo'yi mintaqasiga tarqaladi hamda turli xil ko'ngilsiz voqealarga sabab bo'ladi. Shuning uchun Xorazm viloyatida qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun eng avvalo orol dengizi muammosini hal etish kerak deb hisoblaymiz. Shunday omillar bo'lishiga qaramay viloyatning barcha tumanlarida qishloq xo'jaligi rivojlangan va rivojlanmoqda.

## 2-jadval.

N□	Tumanlar	Tarmoqni rivojlantirish yo'nalishlari
1	Bog'ot	Sholi, sabzavot va uzum yetishtirish
2	Gurlan	Paxta, bug'doy, sholi, poliz mahsulotlari, go'sht va sutni qayta ishlash
3	Qo'shko'pir	Meva yetishtirish, sutni qayta ishlash
4	Urganch	Sabzavot, meva, poliz mahsulotlari yetishtirish, go'sht va sutni qayta ishlash
5	Hazorasp	Sholi, uzum, poliz mahsulotlari yetishtirish, go'sht va sutni qayta ishlash
6	Xonqa	Paxta, bug'doy, sholi yetishtirish
7	Xiva	Paxta, bug'doy, sabzavot, poliz mahsulotlari yetishtirish, go'shtni qayta ishlash
8	Shovot	Meva va uzum yetishtirish, go'shtni qayta ishlash
9	Yangiariq	Meva va uzum yetishtirish
10	Yangibozor	Paxta, bug'doy, sholi, meva yetishtirish

Har bir hududda qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun eng avvalo yer resurslari va suv resurslari muhim hisoblanadi. Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida eng asosiy narsa bu suv hisoblanadi suvsiz hayot yo'q deb bejizga aytilmagan. Xorazm viloyatining asosiy suv manbai bu Amudaryo hisoblanadi. Undan keladigan suvning katta qismi ya'ni 30% suvi turli xil yo'llar bilan ifloslanib bormoqda va ushbu 30% suv ya'ni 1.5 mlrd m<sup>3</sup> suv zovur hamda zahkashlar orqali Turkmaniston hududi orqali Sariqamish ko'liga oqizilmoqda. Suv resurslarini tejash maqsadida ham 2015-2030-yillarda suv resurslarini tejash bo'yicha chora tadbirlar bajarilishi ko'zda tutilgan bo'lib ushbu tadbirlar amalga oshganda viloyatda mavjud bo'lgan barcha qishloq xo'jaligi yerlaridan unumli foydalanib viloyatning Iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

## 3-jadval. Xorazm viloyatida 2015-2030-yillarda suv resurslarini tejash bo'yicha chora tadbirlarning bajarilishi.

N□	Chora tadbirlar nomi	Asos	Bajarilish darajasi( %da)			O'rtacha bir yilda tejaladigan suv hajmi. (mln m <sup>3</sup> )
			2015-2020	2021-2025	2026-2030	
1	Kanallarni tabiiy va sun'iy ravishda izolyatsiya qilish	Jami ichki sug'orish tarmoqlarining uzunligi 14 ming km ni tashkil etadi	5.6 ming km(40%)	9 ming km(64.3%)	14 ming km(100%)	1000,0

2	Nasozlarni elektr energiyasi bilan barqaror ta'minlash	Sug'oriladigan yerlarning nasozlar bilan ta'minlanganlik darajasi 80% bo'lib, ularning asosiy qismi eskirgan	32%(40%)	56%(70%)	80%(100%)	240,0
3	Lazerli tekislash	Viloyatning 265 ming gektar sug'oriladigan yerlarida lazerli tekislash ishlarini olib borish zarur	106 ming ga (40%)	185,5 ming ga (70%)	265 ming ga (100%)	690,0
4	Tomchilatib sug'orishning past bosimli tizimi	Tomchilatib sug'orish usulini asosan suv yetib bormaydigan yoki suv yetib borishi qiyin bo'lgan hududlarda qo'llash maqsadga muvofiq	32 ming ga. (40%)	56 ming ga (70%)	80 ming ga. (100%)	248,4
5	Lemna minor o'simligidan drenaj tizimida foydalanish	Ushbu suv o'simligi bilan kollektor drenaj tizimi suvlaridan ekin maydonlarini qayta sug'orish uchun foydalanish mumkin	40%	70%	100%	546,48
O'rtacha bir yilda tejaladigan suv hajmi (mln m <sup>3</sup> )			1090,0	1907,4	2724,9	2724,9

**Xulosa:** Har bir hududning rivojlanishi aholi turmush darajasini yaxshilanishi albatta ushbu hududda qishloq xo'jaligi va sanoatning rivojlanganligi bilan bog'liqlinini barchamiz yaxshi bilamiz. Viloyatning tumanlari orasida eksport salohiyati bo'yicha oldinlari faqat Urganch tumani ko'zga ko'ringan edi. Hozirda esa nafaqat Urganch tumani balki, viloyatning barcha tumanlarida qishloq xo'jaligi rivojlanmoqda. Buning sababi esa har bir tumanda mavjud bo'lgan xomashyo va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish hamda chet el tajribasini o'rgangan holda yuqori natijalarga erishilmoqda. Xorazm viloyatida qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi va xududiy tarkibini takomillashtirishning iqtisodiy geografik jihatlari asosan O'zbek Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan strategiyani amalga tatbiq qilish orqali qishloq xo'jaligining rivojlanishida muhim o'zgarishlar qilish mumkin.

- qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishni takomillashtirish;
- suvdan foydalanish samaradorligini oshirish;
- qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish;

- qishloq xo'jaligining eksport salohiyatini oshirish va qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar hajmini ko'paytirish;
- qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatish sohasida raqobat muhitini shakllantirish;
- qishloq xo'jaligida axborot texnologiyalarini keng joriy qilish hamda qishloq xo'jaligi statistikasini to'liq raqamlashtirish orqali ma'lumotlar haqqoniyligini ta'minlash;
- kadrlar masalasini hal etish, ilm-fanni rivojlantirish.

Yuqorida keltirilgan strategiyalarni bosqichma bosqich amalga tadbiq etish orqali ko'pgina muvaffaqiyatlarga erishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Qishloq\\_xo%CA%BBjaligi](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Qishloq_xo%CA%BBjaligi).
2. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.
3. Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi. Sh.X.Nazarov. E.T.Yaqubova. D.A.Junaydullayev. X.M.Sayidaxmedov. A.J.Adizov. N.N.Safarova. N.B.Qurbanbayeva. R.R.Abdullayev. Sh.X.Otaboyev. B.S.Eshimov. Sh. Qurbanov. TOSHKENT IFMR nashriyoti 2015.
4. <https://xs.uz/uz/post/ozbekistonda-qishloq-khozhaligini-rivozhlantirish-strategiyasi-iqtisodiyotimiz-drajveri-khalqimiz-turmush-farovonligini-taminlovchi-yangi-bosqichdir>.